

25-Mavzu: “Demografik oʻtish bosqichlari” va uni dunyo hududlari boʻylab ahamiyati

Reja:

- 1. “Demografik oʻtish bosqichlari” va geodemografik toʻlqinlar**
- 2. Demografik rivojlanish bosqichlari**
- 3. Dunyo mintaqalari aholisi demografik rivojlanishi**

“Demografik oʻtish bosqichlari” va geodemografik toʻlqinlar.

Demografik vaziyat, axolining takror barpo etilishi va uning migratsiyasi ayni vaqtda turli mintaqa va mamlakatlarda oʻziga xos xusu-siyatlarga ega boʻladi. Jumladan, aholining tabiiy harakati, yaʼni uning tugʻilish va oʻlim koʻrsatkichlari makon va zamon miqyosida oʻzgarib turadi va ushbu murakkab jarayon qator omillar taʼsirida sodir boʻladi. Iqtisodiyot va demografik vaziyatning oʻzgarib turishi revolyutsion va evolyutsion tarzda amalga oshib boradi. Chunonchi, ishlab chiqarishda yangi texnologiyalarning joriy etilishi (masalan, bugʻ mashinasining ixtiro etilishi, qora metallurgiyada yoqilgi sifatida kokslanuvchi koʻmirdan foydalanish, transport va elektr energetika tizimida muhim innovatsion yangiliklar va h.k.) iqtisodiyotda chinakam revolyutsion oʻzgarishlarga olib keladi. Demografik jarayon-larda ham shunga oʻxshash inqilobiy tub oʻzgarishlar, demografik revolyutsiya yoki demografik portlashlar yuz bergan va bunday hodisalar asosan oʻtgan asrning 60-70 yillarida Afrika va Osiyo mamlakatlarida sodir boʻlgan.

Ikki revolyutsion oʻzgarish oraligʻida rivojlanish evolyutsion tarzda amalga oshib boradi va bir necha oʻn yilliklarni oʻz ichiga oladigan bu davrni, odatda, “oʻtish davri”, deb atashadi. Evolyutsion oʻzgarishlarning revolyutsion vaziyatga olib kelishi va undan soʻng yana evolyutsion tarzda rivojlanishi dialektikaning, miqdor oʻzgarishlarning sifat oʻzgarishlarga oʻtish qonuni asosida roʻy beradi.

Shunday qilib, oraliq yoki oʻtish davridagi rivojlanish xususiyatlari oʻziga xos toʻlqinlarni eslatadi. Bunday toʻlqinlar iqtisodiyot va demografiya fanlarida vaqt (zamon) nuqtai nazaridan oʻrganilgan. Masalan, rus iqtisodchisi

N.D.Kondratev XX asrning 30-yillarida iqtisodiy rivojlanishga oid o'zining "uzun to'lqinlar" g'oyasini yaratgan. Taniqli rus demografi B.Ts.Urlanis esa Ikkinchi jahon urushi ta'sirida aholining tabiiy harakatidagi uzoq yillar davomida kuzatiladigan, asta-sekin so'nib boruvchi demografik to'lqinlar to'g'risida fikr bildirgan. Ushbu g'oyaga binoan, urush davridagi demografik vaziyat, ya'ni tug'ilish ko'rsatkichlarining keskin kamayib ketishi vaqti-vaqti bilan, o'sha davrda paydo bo'lgan avlod va ularning farzandlari oila qurish va bola ko'rish yoshiga etgan-larida ma'lum darajada takrorlanib turadi va bu holat borgan sari susayib boradi.

Ko'rinib turibdiki, bunday "to'lqinlar" asosan tarix nuqtai nazari-dan, boshqacha qilib aytganda, vaqt davomida tadqiq va talqin qilingan. Vaholanki, ularning geografik (hududiy) jihatlari ham yo'q emas, zero har qanday hodisa, voqelik muayyan zamon va makonda sodir bo'ladi. Binobarin, shu o'rinda *geografik to'lqinlar* to'g'risida ham so'z yuritish mumkin. Bunday o'zgarishlarning hududlar miqyosida kengayib borishi shved olimi T. Xegerstrand tomonidan yaratilgan "yangiliklarning diffuzion tarqalishi" g'oyasiga ham o'xshab ketadi.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishda o'tish davrlari, eng avvalo, shu sohalarning ichki rivojlanish qonuniyatlari bilan bog'liq holda, ba'zan keskin "to'ntarishsiz", birdaniga emas, balki bosqichma-bosqich sodir bo'ladi va yangi vaziyatga o'tish birmuncha sillik kechadi. Chunonchi, sanoat rivojlanishi bosqichini ortda qoldirgan (postindustrial) davlatlarda urbanizatsiya jarayoni huddi shunday tarzda yangi, sifat jihatdan boshqacha holatga o'tadi. Iqtisodiyotda hozirgi bozor munosabatlarga o'tish va shunga mos ravishda demografik o'tish davri ham asta-sekinlik bilan amalga oshadi.

Iqtisodiy va demografik rivojlanish o'ziga xos tsikllar yoki alohida bosqichlar ko'rinishida kechadi. Ammo bu sohalarda o'tish davrlari aynan bir vaqtda boshlanib, bir vaqtning o'zida tugamaydi; demografik o'tish davri birmuncha kechroq boshlanib, nisbatan uzoqroq muddatda davom etadi. Bu davr

aholi takror barpo bo'lish shakllarining (keng, oddiy va tor) o'zgarishi bilan belgilanadi.

Demografik rivojlanish bosqichlari. Demografik rivojlanishda quyidagi bosqichlarni ajratishimiz mumkin:

I bosqich. Bunda tug'ilish ham, o'lim ko'rsatkichlari ham yuqori bo'ladi, aholining katta aylanma harakati kichik hajmdagi tabiiy ko'payish bilan tavsiflanadi va uning o'rtacha umr ko'rishi ancha qisqa davrni o'z ichiga oladi;

II bosqichda tug'ilishga nisbatan o'lim ko'rsatkichlari tezroq qisqarib boradi, tabiiy ko'payish ko'tariladi;

III bosqich tug'ilishning ayrim mamlakatlar va, eng avvalo, yirik sanoatlashgan markazlarda tushib borishi, o'lim ko'rsatkichlarining ham qisqarishi bilan ajralib turadi ammo o'lim tug'ilishga qaraganda sekinroq pasayib boradi);

IV bosqichda tug'ilish mamlakatning boshqa shaharlarida ham kamayib boradi, shahar va qishloq joylar o'rtasidagi bu boradagi tafovut qisqaradi, o'lim ancha past ko'rsatkichlarga ega bo'ladi;

V bosqich. Tug'ilishning past darajasi mamlakatning barcha hududlarida kuzatiladi, umumiy o'lim koeffitsienti esa nisbatan past ko'rsatkichlarda (5-6 %) barqarorlashadi, tabiiy ko'payish ancha kisqaradi;

VI bosqichda tug'ilish darajasida jiddiy o'zgarishlar yuz bermaydi, u past holatda saqlanadi, biroq, aholi demografik tarkibining "qarib" borishi sababli, umumiy o'lim ko'rsatkichi tug'ilishdan ustun bo'lib, demografik vaziyatda depopulyatsiya, ya'ni aholining mutloq kamayib borishi yuzaga keladi.

Yuqoridagi demografik rivojlanish bosqichlari dunyoning barcha mamlakatlarida bir vaqtning o'zida emas, ya'ni asinxron ko'rinishda sodir bo'ladi va bu bosqichlarni hamma davlatlar albatta bosib o'tishlari shart emas. Ayni paytda, hatto bir mamlakat doirasida turli xil bosqichlarning mavjudligi, demografik vaziyatning "aralash" xususiyatga ega bo'lishi ham kuzatiladi. Qolaversa, ayrim davlatlar o'zlarining maxsus demografik siyosatida ushbu vaziyatning keskinlashuvini oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshiradi. Shu bois, demografik rivojlanishning VI bosqichi barcha mamlakatlarda (jumladan,

O'zbekistonda ham) bo'lmasligi mumkin. Bu bosqichga o'tgan mamlakatlarda esa mavjud demografik vaziyatni yaxshilash siyosati olib borilmoqda.

Dunyo mintaqalari aholisi demografik rivojlanishi. Bir necha ming yillar mobaynida o'limning juda yuqori va aholi o'sish sur'atlarining past bo'lishligi o'zining asosli sabablariga egadir. Dastavval, bu - moddiy va sanitar-gigiyenik shart sharoitlarning qoniqarsiz ahvolda ekanligi, qolaversa, vaqt-vaqti bilan takrorlanib turuvchi ocharchilik, o'lat, vabo va chechak epidemiyalari natijasida yuz minglab odamlarning qirilib ketishi bilan bop'langandir. Yer sharida bunday ofatlar 200-400, 1200-1300, 1600-1650-yillar ichida qayd etilgan bo'lib, o'sha davrlarda aholi soni umuman o'smadi, 1300-1400-yillar davomida qora o'lat epidemiyasining ta'sirida yer yuzasi aholi sonining 1G'4 qismidan ajradi. Aholi ko'rsatkichlariga oxiri ko'rinmayotgan urushlar ham katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Urushlar XVIII asrda 5,2 mln., XIX asrda 5,5 mln., XX asrda esa deyarli 50 mln. kishining yostig'ini quritdi.

XIX asrgacha bo'lgan davrda demografik jarayonlarda sezilarli o'zgarishlar bo'lmadi. Undan keyingi davrlarda aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlarida demografik o'tish davriga xos jarayonlar boshlandi. U oila bajaradigan vazifalarining keskin o'zgarishi, turmushning nisbatan yaxshilanishi, aholining yosh tarkibidagi siljishlar va boshqa omillar bilan bog'landi.

Dunyo aholisi soni so'nggi 60 yil ichida 2,6 marta o'sdi. Bundan ham yuqori ko'rsatkich Osiyo (2,9) va Afrika (4,5) ga xos bo'ldi. Mazkur ko'rsatkich Yevropada 1,3 martaga teng bo'ldi. So'nggi yillarda Yer yuzi aholisining mutlaq soni yiliga o'rtacha 90 mln. kishiga oshmoqda. Afrika, Markaziy va Janubiy Osiyo, Markaziy Amerikada aholi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sishi kuzatilmoqda. Shu vaqtning o'zida Yevropaning ayrim regionlarida aholi soni, juda past sur'atlar bilan o'smoqda yoki deyarli o'zgarmayapti.

Dunyo aholisi sonining davrlar bo'yicha o'zgarishi

Yilnoma	Davr	Davrning davom etishi	Davr boshida aholi soni	Aholi soining o'rtacha yillik
----------------	-------------	------------------------------	--------------------------------	--------------------------------------

		(yil)	(mln.k)	o`sishi (%)
Miloddan avvalgi 7000 yil ilgari	Neolit	5000	10	
Miloddan 2000 yil ilgari	Antik	2000	50	0,03
0 (yangi era)	Yangi earning boshlanishi, o`rta asrning dastlabki davri	2000	230	0,1
1000-yil	O`rta asrlar	1000	305	0,02
1500-yil	O`rta asrlarning yakuniy davri	500	440	0,1
1650-yil	Yangi zamonning boshlanishi	150	550	0,3
1800-yil	Yangi zamon	150	952	0,5
1900-yil	Yangi zamonning yakuniy davri	100	1656	0,8
1950-yil	Eng yangi zamon	50	2527	1,0
1980-yil	Yaqin o`tgan davr	30	4430	1,9
2001-yil	Hozirgi davr	33	6134	1,5
2013-yil			7095	1,2

Aholi dinamikasidagi farqlar mamlakatlarda mavjud aholi soni va ular egallagan o'rinlarda o'z aksini topmoqda. Dunyoda aholisining soni bo'yicha yetakchi 25 mamlakat aniqlanib, ular egallagan o'rinlarda 1985-2004-yillarda bo'lib o'tgan o'zgarishlarning tahlili quyidagi xulosalarga olib keldi:

- ana shu yillarda va 2025-yillargacha bo'lgan davrda birinchi to'rtlik mamlakatlarning nomi, o'rni o'zgarmaydi (Xitoy, Hindiston, AQSH, Indoneziya);
- mamlakatlar aholisining sonidagi farq kamaymoqda (birinchi mamlakatda 25 mamlakatga nisbatan aholi soni 28 marotaba ko'p bo'lgan bo'lsa. bu ko'rsatkich 2013-yilda 25 martaga teng bo'ldi);
- ushbu mamlakatlarning asosiy qismi Osiyoga (1985-yilda 11 ta, 2013-yilda 12 ta) to'g'ri keladi. Yevropada 1985-yilda 6 ta, 2013-yilda 5 ta shunday mamlakat

bo'lgan. Bu ko'rsatkichlar Amerika bo'yicha tegishli tarzda 3 va 3 ga, Afrikada ham 3 va 4 ga tengdir. Ikki Yevrosiyo mamlakati: Rossiya va Turkiya alohida guruhga kiritilgan.

Dunyo va uning qit'alari, materiklari hamda ayrim regionlari bo'yicha aholi tabiiy harakatini ifodalovchi koeffitsientlar quyidagi jadvalda berilgan. Dunyoda yuqori darajadagi tug'ilish koeffitsientlari Afrika materigiga regionlar ichida Afrikaning barcha hududlariga hamda Markaziy Amerika, Janubiy va Janubi-g'arbiy Osiyo regionlariga, past darajadagi tug'ilish koeffitsientlari esa Shimoliy Amerika, Sharqiy Osiyo hamda Avstraliya va Okeaniyaga xosdir. O'lim koeffitsientining yuqori ko'rsatkichlari Afrika va Yevropada, Markaziy va Janubiy Osiyo regionlarida kuzatilmoqda. Tabiiy o'sish Afrika, Markaziy Amerika, Janubi-g'arbiy Osiyo hamda Markaziy va Janubiy Osiyoda yuqori koeffitsientlarga ega. Ushbu ko'rsatkich Yevropada nolga, Rossiyada esa minus 2-3 promillega teng. Rossiyada immigratsiya katta miqdorga ega bo'lmaganda depopulyatsiya jarayoni, ya'ni aholi sonining qisqarishi undan ham sezilarli bo'lardi.

**Tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish koeffitsiyentlari
(1000 kishiga nisbatan, 2012-yilgi ma'lumotlar)**

Qit'a, materik va mintaqalar	Tug'ilish koeff.	O'lim koeff.	Tabiiy o'sish koeff.	Go'daklar o'limi koeff. (5 yoshgacha bo'lgan 1000 bolaga)	O'rtacha umr davri	
					erkaklar	ayollar
Butun dunyo	21	9	12	73	66	69
Afrika	34	13	21	114	53	55
Amerika, o'rtacha ko'rsatkich	20	8	12	24	73	77
Shimoliy Amerika	19	8	11	7	77	82
Markaziy Amerika	23	7	16	26	70	75
Janubiy Amerika	21	8	13	23	69	73
Karib havzasi	21	8	13	28	69	72
Osiyo, o'rtacha ko'rsatkich	23	9	14	68	65	68
Janubi-g'arbiy Osiyo	26	9	17	86	63	64
Janubi-sharqiy	23	8	15	51	64	67

Osiyo						
Sharqiy Osiyo	16	6	10	29	71	75
Rossiya	11	14	3	13	60	72
Avstraliya va Okeaniya	17	8	9	7	75	78
Yevropa	11	10	1	7	76	82

Aholi soni va uning tarkibiga go'daklar o'limi ham juda katta ta'sir ko'rsatadi. Yer sharida 2003-yilda jami 8331 ming bola bir yoshga yetmasdan o'lganligi qayd etildi. Shundan, 1310 mingi Hindistonga, 708 mingi Xitoyga to'g'ri keladi. Pokiston, Bangladesh, Indoneziya, KXDR, Braziliya, Nigeriya, Efiopiya kabi mamlakatlarda hozirgi vaqtda yiliga 200-500 ming bola bir yoshga yetmasdan o'lmoqda. Bolalar o'limi koeffitsienti Afg'oniston, Angola, Burkina-Faso, Burundi, KDR, Mali, Mozambik, Niger, Nigeriya, Ruanda, Serre-Leone, Chad kabi mamlakatlarda 200 dan yuqori, 32 mamlakatda 100-200 promillega boradi.

Bolalar o'limi mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot darajasi bilan teskari aloqaga ega. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bolalar o'limi koeffitsiyenti 3 (Shvetsiya) dan 8 promillegacha (AQSH) o'zgaradi. Ijtimoiy-siyosiy vaziyati beqaror, iqtisodiy qoloq bo'lgan mamlakatlarda mazkur ko'rsatkich, odatda, 100 dan ortiq, ayrim hollarda 200 dan ham yuqori darajaga (Nigeriya – 240, Serra-Leone - 250) egaligi bilan ajralib turadi.

Yer shari aholisining o'rtacha umr davri 2012-yilda 67 yoshga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkich iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda (Yaponiya, Shvetsiya, Shveysariya ... jami 29 davlat) 78-83 yoshni, qoloq mamlakatlarda (80 dan ortiq) 39-59 yoshni tashkil etdi. O'rtacha umr davrining eng yuqori ko'rsatkichlari Yaponiyaga (83 yosh) hamda Shvetsiya, Shveysariya va Islandiyaga (81 yosh), Avstraliya, Kanada, Avstriya, Isroil, Norvegiya va Fransiyaga (79 yosh), eng past ko'rsatkichlari esa MAR, Zambiya, Malavi, Mozambik, Serra-Leone, Zimbabve (37-43 yosh) kabi mamlakatlarga xosdir.

Yer yuzi aholisi sonining o'sish sur'atlari (1950-2012-yillar)

Yil	Aholi soni, mln. kishi	Davr ichida o`shish, mln. kishi	O`rtacha yillik o`shish, mln. kishi
1950	2515		
1960	3091	504	50
1970	3698	679	68
1980	4450	752	75
1990	5292	842	84
2001	6134	959	96
2012	7095	961	87

O`zbekistonda o`rtacha umr ko`rish davri erkaklarda 67 yoshga, ayollarda esa 73 yoshga, o`rtachasi esa 73,5 yoshga teng.

Tarixiy manbalar Qadimgi Rim va Qadimgi Yunonistonda o`rtacha umr ko`rish davri 25 yoshga teng bo`lganligini asoslaydi. O`rta asrlarda bu ko`rsatkich taxminan 30 yoshgacha ko`tarildi. Mana shu o`rtacha ko`rsatkichlar umr ko`rish davri yuqori bo`lgan kishilar mavjudligini inkor qilmaydi. Masalan, Yuliy Sezar o`ldirilganda 60 yoshdan o`tgan edi. Aflotun 81 yoshda vafot etgan.

Umr davrini ko`rsatuvchi umumiy yo`nalishning mavjudligiga qaramasdan ko`rsatkichlar o`rtasida sezilarli farqlar mavjud. Bu ko`rsatkich Yevropa bilan Afrika o`rtasida 1950-yilda 27 yoshni tashkil etdi. Dunyo miqyoosida o`rtacha umr ko`rish davri 62 yil ichida 19 yoshga oshdi. Bu ko`rsatkich Osiyoda 27 yoshga, Afrikada qariyb 30 yoshga, Yevropada esa 15 yoshga teng bo`ldi. Shunga qaramasdan, ayrim qit`alar va regionlarda erkaklar va ayollar o`rtasidagi farq hanuzgacha kattaligicha qolmoqda.

Demografik vaziyatning vaqt davomida bunday o`zgarishi aholining takror barpo bo`lish samaradorligida ham o`z aksini topadi. Ushbu ko`rsatkich aholi tabiiy harakati aylanmasining, ya`ni tug`ilish va o`lim ko`rsatkichlari yig`indisining tabiiy ko`payishga nisbati bilan aniqlanadi (indeks 0,00-1,00 doirasida o`zgarib turadi). Bunda tabiiy ko`payishning aynan bir xildagi miqdori turli darajadagi tug`ilish va o`lim ko`rsatkichlari natijasida yuzaga kelishi mumkin. Masalan, tug`ilish, har ming kishiga hisoblanganda, 5 ‰, o`lim 35 ‰ va ushbu ko`rsatkichlar, yuqoridagilarga mos ravishda, 15 va 5 promilleni tashkil etganda ham bir xil natijaga, ya`ni tabiiy ko`payishning 10 ‰ - ni hosil qiladi. Albatta,

aholi tabiiy harakatining ikkinchi shakli iqtisodiy va aholi salomatligi nuqtai nazaridan maqbul hisoblanadi. Chunki, birinchi holatda aholining takror barpo bo'lish samaradorlik koeffitsienti 0,12 ga, ikkinchisida esa 0,50 ga teng bo'ladi.

Demografik jarayonlarning hududlar miqyosida o'zgarib borishi o'ziga xos geodemografik to'lqinlarni hosil qiladi. Masalan, tug'ilish ko'rsatkichlarining yaqin o'tmishdagi pasayish jarayoni G'arbiy va Markaziy Evropada boshlanib, dunyoning barcha qismlariga tarqalgan, avval Janubiy va Sharqiy Evropada, so'ngra u Amerika, Osiyo va Afrika mamlakatlarida davom etgan. Ushbu geodemografik yangilikning geografik tarqalish "tezligi" murakkab omillar ta'sirida turlicha bo'lgan.

O'tgan asrning o'rtalarida Osiyo va Afrika mamlakatlarida tug'ilish 40-45 %, o'lim esa 22-24 % atrofida bo'lgan. Tahminan shu davrda Evropada mazkur ko'rsatkichlar 18-20 va 9-10 promilleni tashkil etgan. Alohida davlatlar darajasida qaraydigan bo'lsak, 1960-yillarda Myanmada (Birmada) tug'ilish 45,4, o'lim 18,6 va tabiiy ko'payish 26,8 %, Hindistonda, yuqoridagilar, mos holda, 41,7; 22,0 va 9,7 %, Xitoyda - 38,0; 12,8 va 25,2 %, Frantsiyada esa 18,0; 11,2 va 6,8 % ga teng bo'lgan. O'zbekistonda tug'ilish har ming aholiga nisbatan 1895 yilda 46,9, 1900-1910 yillarda o'rtacha 45,1, 1920 yilda 44,8, 1940 yilda 30,6, 1960 yilda 33,5 kishini tashkil qilgan.

Tug'ilish ko'rsatkichlarining Evrosiyoda geodemografik to'lqinlar shaklida tarqalishi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Farbiy va Markaziy Evropada boshlanib, janubiy va sharqiy yo'nalishda davom etgan. Hozirgi vaqtda ushbu ko'rsatkichning eng past darajasi Boltiqbo'yi mamlakatlari, Belarus va Rossiyada kuzatilmoqda. Mazkur davlatlarda depopulyatsiya ja-rayoni katta ko'rsatkichlarga ega.

Qayd etish lozimki, tug'ilish koeffitsientining pastligi va o'limning unga nisbatan yuqoriligi tufayli vujudga kelgan aholi tabiiy harakatining salbiy tus olishi so'nggi yillarda Rossiyadan asta-sekin Qozog'iston Respublikasiga tarqalish alomatlari kuzatilmoqda. Demografik vaziyatning Qozog'istonda bunday geografik o'zgarib borishi uning shimoliy, g'arbiy, markaziy va sharqiy qismlarida ko'zga tashlanadi. Binobarin, hozirgi kunda mazkur mamlakatning demografik

rivojlanishi, asosan, bizga qo'shni bo'lgan uning janubiy mintaqasi, xususan Janubiy Qozog'iston viloyatiga ko'proq bog'liq bo'lmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda tug'ilish va aholining tabiiy ko'payishi keyingi 50-60 yil mobaynida 2 martadan ziyodroqqa qisqardi. Hozirgi vaqtda respublikamizda tug'ilish koeffitsienti 18-19 promille, ya'ni umumjahon o'rtacha ko'rsatkichidan sal pastroq (20-21 ‰). Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda o'lim ko'rsatkichi ham (5-5,5 ‰) dunyo o'rtacha darajasi (9 ‰)dan ancha past (2005 y.).

O'zbekistonda kuzatilayotgan tug'ilish koeffitsientining qisqarib borishi markazda boshlanib, janubi-g'arb va sharq yo'nalishida tarqalib bormoqda. Albatta, respublikamizda ro'y berayotgan bunday geodemografik to'lqin aniq va uzluksiz "izodema" ko'rinishida emas. Aholi tug'ilish koeffitsientining qisqarish jarayoni Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan boshlanib, janubiy hududlarda, ya'ni Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida "tugaydi" yoki to'xtaydi. Bu borada Xorazm, Jizzax, Buxoro, Namangan va Andijon viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtacha mavqelarga yaqin turadi. Shuningdek, tug'ilishning noan'anaviy holatda ancha past ko'rsatkichlari sanoatlashgan shahar va shaharchalarda va Samarkand va Buxoroi Sharifda ham o'ziga xos "pasayish markazlari" sifatida qayd etilmoqda.

Shunday qilib, demografik jarayonlar vaqt va hudud, zamon va makon darajasida to'lqinsimon, bosqichma-bosqich o'zgarib boradi. Bunday hodi-salarni aholi geografiyasi va geodemografiya nuqtai nazaridan o'rganish aholi tabiiy harakati va o'sishini bashoratlash imkonini beradi.

Tayanch atamalar: "Demografik o'tish bosqichlari", geodemografik to'lqinlar, demografik vaziyat, "uzun to'lqinlar", demografik to'lqinlar geografik to'lqinlar, demografik rivojlanish bosqichlari

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Demografik rivojlanishning qanday bosqichlarga ajratish mumkin?
2. Geodemografik to'lqin deganda nimani tushunasiz?
3. Dunyo mintaqalarida aholi demografik rivojlanishi qanday bo'lmoqda?

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
2. Bo‘rieva M.R., Tojiev Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.
3. Qodirov R.B. Farg‘ona mintaqasi aholisi va mexnat resurslari.-T.: Navro‘z, 2016

Qo‘shimcha adabiyotlar

4. Abdurahnmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O‘quv qollanma. - T.: Noshir nashriyoti. – 2011.
5. Bo‘rieva M.R., Tojiev Z.N. Aholi geografiyasi. Ma‘ruzalar matni. – T., 2000.
6. Bo‘rieva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o‘quv qo‘llanma). – T.: Fan, 2008. – 156 b.
7. Bo‘rieva M. R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. – T.,Universitet, 1997.-157 b.
8. Narodonaselenie. Ensiklopedicheskiy slovar. – M., 1994.
9. Ubaydullaeva R.A., Ata-Mirzaev O.B., Umarova N.O. O‘zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy-o‘quv qo‘llanma). – T., 2006.

Elektron manbalar:

1. <http://ziyonet.uz>